

# **Markaziy Osiyoda fuqarosizlikka barham berish to'g'risidagi Ashxobod Deklaratsiyasi**

*2024-yil 8-noyabrda qabul qilingan*

Biz, Markaziy Osiyo davlatlari — Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikasi delegatsiyalari rahbarlari 2024-yil 8-noyabr kuni Turkmanistonning Ashxobod shahrida fuqarosizlik masalalari bo'yicha Markaziy Osiyo vazirlar konferensiyasida yig'ildik. Birlashgan Millatlar tashkilotining qochqinlar bo'yicha oliy komissari F. Grandining 2024-yil oktabr oyidagi, Turkmaniston va Qirg'iziston Respublikasining ma'lum bo'lgan fuqarosizlik holatlarini hal qilishdagi tarixiy yutug'ini aytib o'tgan va mintaqaning #IBelong kampaniyasi maqsadlarini ilgari surishdagi hissasini e'tirof etgan nutqiga asoslanib, biz fuqarosizlikni bartaraf qilish bo'yicha global vazifalarga umumiy sodiqligimizni tasdiqlaymiz.

## **Yutuqlarning e'tirof etilishi**

**1. Fuqarosizlikni bartaraf qilishda mintaqaviy yetakchilik** Markaziy Osiyo 2014-yildan buyon mintaqada fuqarosizlik bilan bog'liq 200 000 dan ortiq holatlarni birgalikda hal qilib, #IBelong global kampaniyasi doirasida ajoyib natijalarga erishdi. Dunyo miqyosida hal qilingan fuqaroliksizlik holatlarining uchdan bir qismiga to'g'ri keladigan mintaqada mamlakatlari natijalari boshqa mintaqalar uchun namuna bo'lib hisoblanadi:

a) **Qozog'iston Respublikasi** 1954 yilgi apatrid maqomi to'g'risidagi Konvensiyaning asosiy tamoyillaridan birini amalga oshirdi, fuqarosizlikni aniqlashning maxsus milliy tartibini joriy qildi va ikkita milliy kampaniyani o'tkazdi, uning natijasida 30,000 kishi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sifatida

hujjatlashtirildi, shundan 15,000 kishi Qozog‘iston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘ldi. 2019 yilda qochqinlar bo‘yicha global forum jarayonida Qozog‘iston onalarida shaxsni tasdiqlash guvohnomasi bo‘lmagan bolalarga tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalarni berish bo‘yicha ixtiyoriy majburiyatni o‘z zimmasiga oldi va amalga oshirdi.

b) **Qirg‘iziston Respublikasi** tug‘ilishlarni universal ro‘yxatga olinishini va o‘z qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishni ta‘minlash orqali dunyoda birinchi bo‘lib, ma‘lum bo‘lgan barcha fuqaroligi bo‘lmagan holatlarni hal qilgan davlatga aylandi.

c) **Tojikiston Respublikasi** asosiy huquqiy islohotlarni, shu jumladan, vaqtinchalik amnistiya to‘g‘risidagi qonunni amalga kiritdi, bu esa fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga o‘z maqomini qonuniylashtirishga va uzoq muddatli fuqarosizlikni oldini olishga imkon beradi.

d) **Turkmaniston**, Markaziy Osiyo mintaqasida BMTning fuqarosizlik to‘g‘risidagi ikkala Konvensiyasiga so‘zsiz qo‘shilgan birinchi mamlakat bo‘lgan holda, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning maqomini aniqlashning yangi tartib-qoidalarini o‘rnatdi va tug‘ilishlarning 100% lik, shu jumladan, hujjatsiz shaxslarni ro‘yxatga olinishini ta‘minladi, fuqarosizlikning barcha mavjud holatlarni butunlay bartaraf qildi, 32 000 dan ortiq fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga fuqarolik berdi va Global Ittifoqqa qo‘shilgan holda, fuqarosizlikni bartaraf qilish bo‘yicha mintaqaviy va global sa‘y-harakatlarda yetakchi bo‘ldi.

e) **O‘zbekiston Respublikasi** keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirdi, shu jumladan, 2020-yilda qonunchilikka kiritilgan o‘zgartishlar 80 000 nafardan ortiq fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni fuqarolikka qabul qilish imkoniyatlarini oshirdi va shu orqali fuqaroliksizlik darajasini sezilarli darajada kamaytirdi.

Ushbu yutuqlar Markaziy Osiyoni fuqarosizlik muammolarini oldini olish, kamaytirish va yakuniy hal qilishni ta‘minlaydigan transformatsion huquqiy asoslar va harakatlar orqali

fuqarosizlikni bartaraf qilish bo'yicha global harakatning yetakchisi sifatida ko'rsatadi.

## **2. Fuqarosizlikni bartaraf qilish bo'yicha Global Ittifoqqa sodiqlik**

#IBelong kampaniyasi yakuniga ko'ra, biz fuqarosizlikni bartaraf qilish bo'yicha Global Ittifoqqa qo'shilish imkoniyatini ko'rib chiqamiz. Markaziy Osiyo mazkur global platformada mavjud resurslar va imkoniyatlardan foydalanishda davom etgan holda, o'z tajribalarini boshqa mintaqalar bilan baham ko'rishga tayyor.

### **Markaziy Osiyo uchun strategik qarashlar**

Erishilgan yutuqlarni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash maqsadida harakatlaringizni quyidagi yo'nalishlarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir:

#### **1. Fuqarosizlikni aniqlashning tartib-qoidalarini takomillashtirish**

Biz mintaqadagi fuqarosizlikni aniqlash tartib-qoidalarini yanada takomillashtirish va yagonalashtirish niyatidamiz. Ushbu o'zgarishlar xalqaro me'yorlarga muvofiqlikni ta'minlash va barcha uchun, ayniqsa aholining zaif qatlamlariga alohida e'tibor bilan, fuqarolikka kirishni osonlashtirishga qaratilgan.

#### **2. Chet elda fuqarolikni tasdiqlash jarayonini tezlashtirish**

Biz Markaziy Osiyo mamlakatlariga, mamlakatlar o'rtasida fuqarolikni tasdiqlash jarayonlarini tezlashtirish uchun, birgalikda harakat qilishni tavsiya etamiz. Ayrim toifadagi shaxslar uchun fuqarolik holatini tasdiqlashda mavjud qiyinchiliklarni e'tirof etgan holda, muammolarni hal qilishga to'sqinlik qiladigan ma'muriy kechikishlarni kamaytirish uchun tezkor tasdiqlash protokollarini tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish muhimdir.

### **3. Qolgan fuqarosizlik holatlarining qisqartirilishi**

Biz Markaziy Osiyoning har bir mamlakatida qolgan fuqarosizlik holatlarni hal qilish va kamaytirish bo'yicha doimiy sa'y-harakatlarga intilamiz. Milliy va mintaqaviy harakatlar rejalarini ushbu ustuvorliklarga muvofiq yangilashni va fuqarosizlikni kamaytirish bo'yicha aniq, erishish mumkin bo'lgan vazifalarni belgilashni tavsiya qilamiz.

### **4. Mintaqaviy hamkorlik va eng yaxshi tajribalar almashinuvini targ'ib qilish**

Yutuqlarimizni hisobga olgan holda, biz muntazam ravishda mintaqaviy uchrashuvlar o'tkazish, hamkorlikni kuchaytirish va eng yaxshi tajribalarni baham ko'rishni tavsiya qilamiz. Ushbu muntazam tadbirlar salohiyatni jamoaviy oshirishni, innovatsion yondashuvlarni joriy etishni va fuqarosizlik masalalarini hal qilish bo'yicha milliy va mintaqaviy rejalarini mustahkamlashni qo'llab-quvvatlaydi.

### **5. Ma'lumotlar yig'ish va shaffoflikni mustahkamlash**

Biz fuqarosizlik bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tarqatishni yaxshilash zarurligini ta'kidlaymiz. Foydalanish imkoni bo'lgan, keng qamrovli ma'lumotlar, siyosatchilarga yanada samarali yechimlarni ishlab chiqish va Markaziy Osiyoda fuqarosizlik masalalarini hal qilishda shaffoflik va hisobdorlikni oshirish imkonini beradi.

### **6. Milliy qonunchilikni xalqaro me'yorlar va konvensiyalarga muvofiqlashtirish**

Biz BMTning Fuqarosizlik to'g'risidagi konvensiyalariga qo'shilish va milliy qonunchilikni 1954 va 1961 yillardagi Fuqarosizlik to'g'risidagi Konvensiyalar ruhida takomillashtirish ustida ishlash muhimligini yana bir bor tasdiqlaymiz. Shunday qilib, biz kelajakda fuqarosizlik holatlarining oldini olishga va umuminsoniy huquqlarga sodiqligimizni kuchaytirishga intilamiz.

### **7. Barcha bolalar uchun tug'ilishni ro'yxatdan**

## **o‘tkazish va huquqiy maqomni qo‘llab-quvvatlash**

Biz Markaziy Osiyoda tug‘ilgan har bir bolaning o‘z vaqtida ro‘yxatga olinishini ta‘minlaydigan siyosatni qo‘llab-quvvatlaymiz. Universal ro‘yxatga olish tartibiga erishish uchun tug‘ilganlikni qayd etishdagi huquqiy, ma‘muriy va ijtimoiy to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

## **8. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning milliy tizimlarga integratsiyasi**

Biz fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning asosiy huquq va xizmatlardan, shu jumladan, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta‘minlaydigan siyosatni qabul qilishga chaqiramiz. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni milliy tizimlarga integratsiya qilish, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ijtimoiy xizmatlardan inklyuziv va teng huquqiy foydalanish imkoniyatini ta‘minlash zarur.

## **Barqaror rivojlanish va fuqarosizlikni bartaraf etish maqsadlariga sodiqlik**

Fuqarosizlikni bartaraf qilish barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish uchun juda muhimdir, ayniqsa tinch, adolatli va inklyuziv jamiyatlar uchun BRMni 16-maqsadi va tengsizlikni qisqartirish uchun BRMni 10-maqsadi. Biz 2030 yilgacha bo‘lgan kun tartibida fuqarosizlik masalalarini hal qilish bo‘yicha sa‘y-harakatlarimizni kuchaytirib, "hech kimni e‘tibordan chetda qoldirmaslik" shiori bo‘yicha qat‘iyatimizni yana bir bor tasdiqlaymiz.

## **Kelajakka nigoh**

Mamlakat delegatsiyalari Markaziy Osiyoda fuqaroliksizlikka barham berish, Fuqaroliksizlikka barham berish bo‘yicha Global Ittifoqqa qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish va mintaqamizdagi har bir inson fuqarolik taqdim etadigan xavfsizlik va qadr-qimmatdan bahramand bo‘lishi mumkin bo‘lgan kelajakka intilish bo‘yicha hamkorlikdagi va individual sa‘y-harakatlarini davom ettirish maqsadlarini e‘tirof etishdi.